



FOREIGN EXPERIENCE IN STUDYING THE RELIGIOUS AND SOCIAL BASIS OF RELIGION AND MEDICINE

Alidjanova Lazizakhon

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN,
Senior lecturer of "UNESCO Chair on Religious Studies and the
Comparative Study of World Religions"

Ankara

lazizaxontiu@gmail.com

A.Kadiri st. 11, Tashkent, Uzbekistan

ABSTRACT: Throughout the history of mankind, the development of religion and the issue of medicine have gone through the stage of growth in mutual noumenal harmony. In particular, whether it is based on religion or contradicts religious teachings was in the center of discussion. Although religious motifs are not found in the medical works written by ancient scientists, the issue of medicine is always explained in religious literature. Later, with the strengthening of the role of religion in society, medical scientists also tried to prove their views with religion. At the same time, the monks themselves worked as healers. In Christianity, this is evidenced by the miracle given to Jesus (a.s.) and his healing of people, healing the eyes of the blind, cleaning the skin of lepers, and stroking the paralyzed. After the ascension of Jesus (a.s.) from the earth, the apostles, and after them the saints, undertook this task. After all, according to the Christian faith, the disease is caused by sin, and its healing is through repentance and spiritual purification. In our opinion, this issue creates the need to study the field of medicine in religious teachings, sources and ages.

Key words: *foreign experience, religion and medicine, Christianity, islam, Bible, Qur'an, hadiths.*

Insoniyat tarixi davomida din rivoji va tibbiyot masalasi o'zaro noumen uyg'unlikda yuksalish bosqichini bosib o'tgan. Ayniqsa, uning din bilan asoslanishi yoki diniy ta'limotlarga zid bo'lishi muhokama markazida bo'lgan. Antik davr olimlari tomonidan yozilgan tibbiyotga oid asarlarda diniy motiv uchramasada, diniy adabiyotlarda tibbiyot



masalasi doimo izohlangan. Keyinchalik, jamiyatda dinning o'rni kuchayishi bilan tibbiyot bilan shug'ullanuvchi olimlar ham o'z qarashlarini din bilan isbotlashga harakat qildilar. Ayni damda din rohiblarining o'zi ham bir vaqtning o'zida tabib sifatida faoliyat olib bordilar. Xristianlikda bunga Iso (a.s.)ga berilgan mo'jiza va uning odamlarni davolashi, ko'rlarning ko'zlarini sog'aytirishi, moxovlarning terilarini tozalashi, shollarni silab oyoqqa turg'azishini dalil qilib oladilar. Iso (a.s.)ning yer yuzidan ko'tarilishidan keyin ushbu vazifani xavoriylar, ulardan keyin avliyolar o'z zimmalariga oldilar. Zero, xristianlik e'tiqodiga ko'ra, kasallik gunoh oqibatida yuzaga kelib, uning shifosi tavba va ruhiy poklanish bilan bo'ladi. Bizningcha, bu masala diniy ta'limotlar, manba va asrlarda tibbiyot sohasini o'rganish zaruratini vujudga keltiradi.

Tibbiyot va din to'g'risidagi ilk tadqiqotlar G'arbiy Yevropada birinchi tibbiyot maktablari va universitetlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq hisoblanadi. Xristian diniga ko'ra, bilim 2 turga: tabiiy va g'ayritabiiy bilimga ajratilgan. Tabiiy bilimlar inson tafakkuri natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, g'ayritabiiy bilimlar Injilda keltirilgan ilmlar bo'lib, ular Aflotun, Arastu va xristianlik tomonidan tan olingan boshqa antik davr faylasuflarining matnlarida o'z aksini topgan. Olimlarning vazifasi bu matnlarni yangi ma'lumotlar bilan tasdiqlash bo'lgan. Shu asosda o'rta asrlar sxolastikasi (yunoncha $\epsilon\pi\iota\sigma\tau\eta\mu\omicron\nu\alpha\varsigma$ — olim, scholia — maktab) — diniy falsafaning bir turi, katolik ilohiyotshunosligi va Arastu mantig'ining sintezi bo'lib, u bilimning asosiy manbai sifatida Bibliyaga murojaat qilish, isbotlashning mantiqiy usullarini qo'llash orqali diniy dunyoqarashni nazariy-metodologik asoslash bilan tavsiflangan. Arastuning ruh abadiyligi haqidagi ta'limoti O'rta asrlar sxolastikasida qo'llanilgan bo'lib, ko'p asrlar davomida Yevropada tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga ta'sir ko'rsatgan.

G'arbiy Yevropadagi birinchi tibbiyot maktabi, Italiyadagi Salerno tibbiyot maktabi bo'lib, tahminan IX asrda tashkil etilgan. Shifokorlar bemorlarni davolash va tibbiyot san'atini o'rgatish bilan shug'ullangan. Maktab amaliy shifokorlar maktabi sifatida rivojlangan. Muqaddas Rim imperatori Fridrix II (XIII asr) buyrug'i bilan unga shifokor unvonini berish huquqi berilgan. Maktabda lisenziyasiz tibbiy faoliyat bilan shug'ullanish taqiqlangan. Maktabning obro'si va mashhurligini Salerno shifokorlari tomonidan o'rganilgan va Yevropa bo'ylab tarqatilgan ko'plab tadqiqotlar bilan izohlash mumkin. O'rta asr Yevropa jamiyatida dinning o'rni birlamchi bo'lganligi sababli, tadqiqotlarda ham buni sezish



mumkin. IX-XI asrlarda Salernoda 60 ta reseptni o'z ichiga olgan "Antidotariy", va "Passionariy" — kasalliklarga tashxis qo'yish bo'yicha amaliy qo'llanma kabi amaliy tibbiyot asarlari yaratilgan. XII asrda Salernoda o'sha paytda ma'lum bo'lgan barcha kasalliklarni davolashga bag'ishlangan "Kasalliklarni davolash to'g'risida" risolasi yozilgan.

XI-XV asrlarga kelib shaharlarning rivojlanishi natijasida Yevropada universitetlar shakllana boshladi. Dunyodagi eng qadimgi universitetlar o'rta asrlarda Italiyada — Boloniya (1088), Padua (1222), Neapolitan (1224), Pizan (1343), Angliyada — Oksford va Kembridj (1209), Shotlandiyada — Edinburg (1583), Fransiyada — Parij (1215), Monpelye (1289), Ispaniyada Madrid (1293), Salamank (1218), Portugaliyada — Lissabon (1290), Chexiyada — Praga (1348), Polshada — Krakov (1364), Avstriyada — Vena (1365), Germaniyada — Kyoln (1388), Leypsig (1409) universitetlari tashkil etildi. Parij universiteti (1215) Fransiya va Yevropadagi birinchi universitetlardan biri bo'lib, bir necha ibodatxona maktablarining birlashishi natijasida yaratilgan. Dastlab u 4 ta fakultetga ega bo'lgan: san'at, qonunchilik, tibbiyot va ilohiyot. XIII asrda u Yevropadagi eng yirik universitetlardan biriga aylandi. Tibbiyot ilohiyotga nisbatan ikkinchi darajali fan hisoblangan, chunki Parij universiteti xristian ilohiyotiga asoslangan bo'lib, xristianlik ta'limotiga ko'ra, insonni davolash uning ruhiyatini poklashdan boshlanadi. Tibbiyotning vazifasi esa "o'lik tanani davolash" deb qaralgan.

Yevropa universitetlarida rektor, dekan kabi rahbar lavozimlarni ruhoniylardan bo'lgan shaxslar egallagan, bu chora qonuniy sabablarga ko'ra amalga oshirilgan bo'lib, dunyoviy shaxslar ruhoniylarni sud qilish huquqiga ega bo'lmagan. Parij kabi cherkov universitetlarida rahbar xodimlar cherkov tomonidan, Neapol kabi qirol farmoni bilan tashkil etilgan universitetlarda esa qirol hokimiyati tomonidan tayinlangan va maosh to'langan.

"Tibbiyot" atamasi ichki kasalliklarni anglatib, sxolastika hukmronlik qilgan G'arbiy Yevropa universitetlarida amaliy tajribaga e'tibor bermaslik ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyati hisoblangan. Ibodatxona Galen, Gippokrat va Ibn Sino asarlarini tan olgan. Cherkov senzurasidan o'tkazilgan tibbiyotga doir asarlarga universitetlarda o'qitilgan. O'qitish va o'rganish ikki usulda: dogmatik va sxolastik bo'lib, universitetlarda ichki kasalliklarni o'rganish faqat nazariy xarakter kasb etgan. O'rta asr universitetlarining



aksariyatida jarrohlik amaliyoti o'qitilmagan. Xristianlik ta'limoti va cherkov qonunlari inson jasadining ochilishini ta'qiqlaganligi sababli talabalarning inson tuzilishi haqidagi tasavvurlari yuzaki bo'lgan.

Tadqiqotchi T.Sorokina o'z ishida ta'kidlaganidek: "G'arbiy Yevropada o'liklarni ilk marotaba yorib ko'rish eng ilg'or universitetlarda – Salerno va Monpelyeda rohiblarning maxsus ruxsati bilan faqat XIII-XIV asrlardan boshlab amalga oshira boshlangan. Buning asosida 1238-yilda Fridrix II Salernodagi tibbiyot fakultetiga 5-yil ichida faqat 1 ta jasadni ochishga ruxsat bergan. 1376-yilga kelib, Anju gersogi Lyudovik va Langedok hukmdori Monpelye universitetiga-yiliga 1 ta jasad berishni buyurgan.

Tibbiyotga doir tadqiqotlar va kitoblar topish juda mushkul va qimmat bo'lgan. Xattot-rohiblar har bir kitob ustida bir necha-yil ishlaganlar. Qimmatbaho kitoblar nazorati kafedralarga yuklatilgan yoki kitob javonlarga zanjirband qilingan. Misol uchun XV asrda Parij universitetining tibbiyot fakultetida bor yo'g'i 12 ta kitob bo'lgan.

G'arbiy Yevropada anatomiya bo'yicha birinchi darslik (1316) Bolonya universiteti magistri M. de Lussi (1275–1326) tomonidan yaratilgan. Uning to'plami 2 ta jasadning ochib ko'rilishiga asoslangan bo'lib, ular juda kamdan-kam uchraydiganligi sababli bir necha hafta davomida ehtiyotkorlik bilan bajarilgan. Ko'p ma'lumotlar Galenning "Inson tanasining qismlarini nomlash to'g'risida" asaridan olingan. Keyinchalik ilmiy anatomiyaning asoschisi bo'lgan Vezalius anatomiyani ushbu darslik bo'yicha o'rgangan. Gi de Sholiak (1300-1368) — Fransiya "jarrohligining otasi", Bolonya, Monpelye va Parij universitetlarining taniqli bitiruvchisi, tibbiyot magistri bo'lgan. U Avinon papaligining papa Kliment VI va uning ikki vorisi — Innokentiy VI va Urban V shifokori bo'lgan. Lion yaqinidagi Sen-Jyust ibodatxonasi kasalxonasida jarrohlik operatsiyalarini o'tkazgan va vabo pandemiyasi davrida (1348), Rim papasi Kliment VI ruxsati bilan u vabodan o'lganlarni kasallikning sababini o'rganish ochib ko'rish amaliyotini bajargan. U vabo bilan kasallangan bemorlarni tibbiy maqsadda ochib ko'rgan birinchi shifokorlardan biri hisoblanadi. Uning "Tibbiyotning jarrohlik san'ati sharhi" (1363) asari o'sha davr jarrohlik bo'yicha o'ziga xos ensiklopediya hisoblanadi. Asar XVII asrgacha G'arbiy Yevropada jarrohlik bo'yicha darslik sifatida qo'llanilgan.

Islom ta'limoti yuzaga kelgan davrda jamiyatda o'ziga xos xalq tabobati mavjud edi. Zero, VII asrga qadar ko'plab tibbiyotga doir asarlar yozilgan bo'lsada, ushbu xalq tabobatining



manbaviy asosi yo'q edi. Qalb va jismni davolovchi Qur'on oyatlari va hadislar yuzaga kelib, ular to'plangach, musulmon tabiblar shariat va ilmga asoslangan holda asarlar yoza boshladilar. Buning natijasida yangi Tibbun nabaviy janri yuzaga keldi.

IX asrdan boshlab musulmon mamlakatlarida tibbiyot ilmi o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqib, yangi ixtirolar, yangi ilmiy asarlar paydo bo'ldi. Shuningdek, ushbu asarlar G'arb Renessansi uchun ham asos bo'lib xizmat qildi. Musulmon tabiblari ixtirolari va asarlari ustiga qurilgan G'arb tibbiyot mutafakkirlarining qarashlari yangi tadqiqotlar hamda asarlarning vujudga kelishiga olib keldi.

Arab xalifaliklarining tabobati VII asr o'rtalaridan boshlab shakllana boshladi. Uning eng gullab-yashnagan davri X-XI asrlarga to'g'ri keladi. Buxoro, Xorazm, Samarqand, Damashq, Bag'dod, Qohira, Kordovadan o'z zamonasining buyuk shifokor olimlari yetishib chiqqan. Masjidlar tibbiy ta'limning asosiy markazlari hisoblangan. Tibbiy bilimlarning rivojlanishida arab tilidan lotin tiliga tibbiyot adabiyoti tarjimonlari muhim ahamiyat kasb etgan. Ular musulmon Sharq tabiblari asarlarini Yevropaga yetkazganlar. O'z navbatida Sharq mutafakkirlari antik davr tibbiyot klassiklari merosini saqlab qoldilar. IX-X asrlarda mavjud bo'lgan deyarli barcha adabiyotlar arab tiliga tarjima qilingan. Mashhur tarjimon xalifa al-Mutavakkilning saroy tabibi nestorian-nasroniy Hunayn ibn Is'hoq (809–873 yy.) bo'lib, u arab, suriya, yunon va lotin tillarini yaxshi bilgan, ilmiy asarlarning qo'lyozma nusxalarini topish maqsadida Vizantiya imperiyasi bo'ylab sayohat qilgan. Uning tarjimalari orasida Gippokrat, Dioskorid, Galen, Afloton, Arastu, Soran, Oribasiy, Egina orolidan bo'lgan Pavel asarlari mavjud. Bag'dodda tibbiyot fanidan dars bergan, arab tiliga tibbiyot atamasini kiritgan, arab tilidagi tibbiy matnlarga asos solgan, ko'z muskullari va asablarini tavsiflovchi ("O'n risola haqida kitob, ko'z to'g'risida") oftalmologiya fanining shakllanishiga hissa qo'shgan.

O'rganilgan tadqiqotlarni yondashuviga ko'ra bir necha turlarga bo'lish mumkin, ya'ni:

- Tarixiy yondashuv;
- Tibbiy yondashuv;
- Falsafiy yondashuv;
- Diniy yondashuv;
- Dinshunoslik-ob'yektiv yondashuvi.



Bugungi kungacha o'rganilgan tadqiqotlarning katta qismi tibbiy va diniy-sub'yektiv yondashuvga to'g'ri keladi.

Insoniyat tarixi davomida tibbiyot masalasi doimo birlamchi soha hisoblanib, uning din bilan asoslanishi yoki diniy ta'limotlarga zid bo'lishi muhokama markazida bo'lgan. Shu sababli antik davr olimlaridan boshlab bugungi kunga qadar mutafakkirlar, tibbiyot olimlari tomonidan yozilgan ilmiy tadqiqotlarda din va tabobat masalasi alohida o'rganilgan. Keyinchalik, jamiyatda dinning o'rni kuchayishi bilan faqat tibbiyot bilan shug'ullanuvchi olimlar ham o'z qarashlarini din bilan isbotlashga harakat qilganlar. Buning natijasida, din va tibbiyotni uzviy o'rganuvchi tadqiqotlarda bir qancha yondashuvlar yuzaga keldi. Jumladan, o'rta asr tibbga doir manbalarning barida jamiyatda dinning roli ustunlik qilganligi sababli diniy motiv ustunlik qilgan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotlarni yondashuviga ko'ra tarixiy, tibbiy, falsafiy, diniy-sub'yektiv va dinshunoslik-ob'yektiv yondashuvlarni kuzatish mumkin.

REFERENCES

1. Abu Bakr Al-Khassaf. (2008). A Ninth Century Treatise on the Law of Trusts (Being a Translation of Al-Khassaf, Ahkam Al-Waquf), trans. Gilbert Paul Verbit. Bloomington: Xlibris Corporation.
2. Andrew C Miller. (2006). Jundi-Shapur, Bimaristans, and the Rise of Academic Medical Centres. Journal of the Royal Society of Medicine.
3. Ann K. S. Lambton. (2013). Wakf in Persia, in Encyclopaedia of Islam, Second Edition, ed. P. Bearman, et al.
4. Baron Carra De Vaux. (1993). Tibb, in First Encyclopaedia of Islam: 1913-1936, ed.
5. Byrne J.P. (2004). The Black Death. Westport, CT: Greenwood Press.
6. Ch. Bürgel and R. Mottahedeh. (1988). A'od-Al-Dawla, in Encyclopaedia Iranica. New York.
7. Conrad, "The Arab-Islamic Medical Tradition," pp. 136-137.
8. Conrad. (1993). The Arab-Islamic Medical Tradition.
9. Cyril Elgood, A Medical History of Persia and the Eastern Caliphate: From the Earliest Times until the Year A.D. 1932 (Cambridge: Cambridge University Press, 1951), p. 131-133.